

Glossariy:

Meristema (yun. meristos — bo‘linuvchi), hosil qiluvchi to‘qima — o‘simliklar to‘qimalaridan biri bo‘lib, bo‘linish va yangi hujayra hosil qilish xususiyatini uzoq vaqt davomida saqlaydi. Meristemaning bir guruhi — initsial hujayralar rivojlanishning embrional fazasidan keyingi bosqichlarga o‘tmasdan, doimiy ravishda bo‘linib, o‘simlikning o‘shini ta‘minlaydi. Boshqa guruh hujayralari esa asta-sekin differentsiatsiyalanib, turli doimiy to‘qimalarni (masalan, qoplovchi, o‘tkazuvchi, mexanik va boshqalar) hosil qiladi.

Poya (caulis) — o‘simlikning asosiy o‘qi bo‘lib, u shox, barg va gullar uchun asos bo‘ladi. Poya bo‘g‘im (barg joylashgan o‘rni) va bo‘g‘imlar o‘rtasidagi bo‘shliqlardan iborat. Poya ildiz va barglar orasidagi moddalar almashinuvini ta‘minlaydi.

Barg (lotincha folium, yun. phyllon) — yuksak o‘simliklar uchun asosiy vegetativ organlardan biri bo‘lib, fotosintez, transpiratsiya va gaz almashinuvini jarayonlarini amalga oshiradi.

Apikal meristema — to‘liq ixtisoslashmagan hujayralardan tashkil topgan bo‘lib, uning ikki turi mavjud: poyaning apikal meristemi (PAM) va ildizning apikal meristemi (IAM).

Interkalyar meristema — yopiq urug‘li o‘simliklardan faqat bir urug‘pallalilarda uchraydi. Ushbu meristema to‘qimasi bir urug‘pallalilarning o‘tsimon vakillarida, barg qini va poyadagi bo‘g‘imlarda joylashadi.

Latereal meristema — o‘simliklarning yon tomonga o‘shini ta‘minlaydigan to‘qima bo‘lib, u o‘simlikning o‘q organlari atrofida joylashadi. Latereal meristemaga kambiy, qo‘shimcha kambiy va fellogen kiradi.